



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

AHOLI DAROMADLARI TIZIMINING SHAKLLANISH MANBALARI, TARKIBIY TUZILMASI VA IJTIMOYIY- IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA DINAMIK O‘ZGARISH XUSUSIYATLARI

Atayev Jaxongir Erkinovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti stajyor o‘qituvchi
j.ataev88@gmail.com

ABSTRACT

Ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholi daromadlarining shakllanish manbalari, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamik o‘zgarish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish Yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlangan. Muallif tomonidan 2024–2025-yillar oralig‘ida aholi umumiy daromadlari tarkibidagi birlamchi daromadlar, mulkiy daromadlar va transfertlar ulushidagi o‘zgarishlar qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, aholi daromadlarining diversifikatsiyalashuvi va real daromadlar xarid quvvatining iqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni yoritib berilgan.

Keywords: aholi daromadlari, nominal daromad, real daromad, birlamchi daromadlar, mulkiy daromadlar, ijtimoiy transfertlar, turmush farovonligi, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy modernizatsiya, xarid qobiliyati.

KIRISH

Aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish iqtisodiyotning fundamental asoslarini rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlardan biri bo‘lgani kabi, Yangi O‘zbekistonning ham iqtisodiyotni rivojlantirishdagi maqsadlari aholi daromadlarini oshirish orqali ularning iste’mol darajasini oshirishga qaratiladi. Keyingi yillarda aholi daromadlarini oshirish, qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini ko‘paytirish maqsadida ularga turli iqtisodiy va moliyaviy

imtiyozlar ajratish, kasbga yo‘naltirish va malakasini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Aholini yuqori mehnat daromadlari bilan ta‘minlash, ularning ijodiy va kasbiy o‘shishi uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy liftlarni shakllantirish lozim. Barcha sa‘y-harakatlarimiz zamirida bitta maqsad – fuqarolarning real daromadlari va real oylik maoshlarining inflyasiya darajasiga qaraganda tezroq o‘shib borishini ta‘minlash turibdi”¹ deb, ta‘kidlab o‘tgan. Shu jihatdan aholi daromadlari, ularni shakllantirish va oshirish imkoniyatlari bugungi davom etayotgan pandemiya sharoitida o‘ta dolzarbmasalalardan hisoblanadi.

Aholi daromadlariga bo‘lgan yondashuvlar bo‘yicha bir necha olimlar akademik Q.X.Abdurahmonov², prof. Sh.Shodmonov³, X.S.Muxitdinov⁴, va B.K.G‘oyibnazarov⁵, A.O‘lmasov va A.Vahobovlarning⁶ ilmiy izlanishlar olib brogan.

Jamiyat a‘zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar orasida ish haqidan tashqari chakana narx dinamikasi, iste‘mol bozorining tovarlar bilan to‘yinganlik darajasi kabilar muhim o‘rin tutadi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi⁷.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma‘lum vaqt oralig‘ida olingan daromadlarining pul ko‘rinishidagi miqdori.

Real daromad – aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ya‘ni, real daromad aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Birinchidan, daromad shakllari o‘zgardi, ya‘ni uning an‘anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari – tadbirkorlik faoliyatidan,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

² Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2019. 357-b.

³ Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti DUK, 2021. 630 b.

⁴ Muxiddinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Monografiya. T.: “FAN”, 2009. 12 b.

⁵ G‘oyibnazarov B.K., Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari daromadlari va xarajatlarining statistik tahlili. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2018. № 3, may-iyun, 5-b.

⁶ O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014 11b

⁷ Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti DUK, 2021. 630b.

(ko‘chmas) mulkdan, qimmatli qog‘ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo‘shildi. Ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o‘zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to‘planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo‘ldi. Uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo‘nalishi paydo bo‘ldi: majburiy to‘lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog‘ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo‘yilmalar shular jumlasidandir.

Aholi daromadlari o‘shishiga mutanosib ravishda iste‘mol talabi ham ortib bormoqda, bu iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish va chakana savdo aylanmasida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, 2023 yilda iqtisodiyotda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 7,3 foizga, chakana savdo aylanmasi esa 9,1 foizga o‘sgan.

Davlat xarajatlarining yuqori sur‘atlari, transchegaraviy pul o‘tkazmalari va iqtisodiyotga kreditlarning jalb qilinishi yil oxirigacha yalpi iste‘mol va iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi omillar bo‘lib qoladi.

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a‘zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati⁸

Ko‘rsatkichlar	Jamiga nisbatan, % da		O‘shish sur‘ati, % da
	2024	2025	
Umumiy daromadlar – jami (I+II)	100	100	100
I. Birlamchi daromadlar	71,4	70,4	98,6
I.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	68,7	67,1	97,7
I.2. Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,7	3,3	122,2
II. Transfertlardan olingan daromadlar	28,6	29,6	103,5

2025 yilning yanvar–iyun oylarida aholi umumiy daromadlari tarkibida muhim tarkibiy

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari. www.stat.uz

o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, umumiy daromadlar hajmida birlamchi daromadlar yetakchi o'rinni egallab, ularning ulushi 70,4 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024 yilga nisbatan biroz pasaygan bo'lib (71,4 % dan 70,4 % ga), o'sish sur'ati 98,6 % ni tashkil etdi. Mazkur holat iqtisodiyotda ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar ulushining nisbatan kamayganini ko'rsatadi.

Birlamchi daromadlar tarkibida asosiy ulushni ishlab chiqarishdan olingan daromadlar egallaydi. 2025 yilda ushbu ko'rsatkich 67,1 % ni tashkil etib, 2024 yilga nisbatan (68,7 %) pasayish kuzatildi. O'sish sur'ati 97,7 % bo'lib, bu ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushida ma'lum darajada qisqarish mavjudligini bildiradi. Bunga ishlab chiqarish hajmining nisbiy o'zgarishi, mehnat bozoridagi tendensiyalar yoki iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi sezilarli darajada oshdi. 2024 yilda 2,7 % ni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2025 yilda 3,3 % ga yetdi. O'sish sur'ati 122,2 % ni tashkil etib, bu kapitaldan olinadigan daromadlar, jumladan foizlar, dividendlar va ijara daromadlarining ortib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiya moliya bozorlari va mulkdan foydalanish samaradorligining asta-sekin oshib borayotganidan dalolat beradi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim o'rin tutadi. 2025 yilda ularning ulushi 29,6 % ni tashkil etib, 2024 yilga nisbatan (28,6 %) oshgan. O'sish sur'ati 103,5 % ga teng bo'ldi. Bu esa ijtimoiy to'lovlar, nafaqalar, subsidiyalar hamda xorijdan keladigan pul o'tkazmalari hajmining ortganini anglatadi.

Umuman olganda, 2025 yilda aholi daromadlari tarkibida birlamchi daromadlar ulushi biroz qisqargan bo'lsa-da, ular hanuz asosiy manba bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, transfertlar va mol-mulkdan olinadigan daromadlarning oshishi aholi daromadlari diversifikatsiyalanayotganini, ya'ni turli manbalar hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida aholi daromadlarini oshirish, bir tomondan, fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini yuksaltirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, daromadlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga yo'naltirilgan.

Umuman olganda, aholi daromadlari tarkibidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va ularning xarid qobiliyatini inflyatsiya darajasidan yuqori sur'atlarda saqlab qolish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining fundamental asosi bo'lib qoladi.

References

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida,” PF-158-son Farmon, Sep. 11, 2023.
- [2] Sh. Shodmonov, Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, O‘zbekiston: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
- [3] Q. X. Abduraxmonov, Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Toshkent, O‘zbekiston: Fan nashriyoti, 2019.
- [4] A. O‘lmasov and A. Vaxobov, Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, O‘zbekiston: Iqtisod-moliya, 2014.
- [5] X. S. Muxiddinov, Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish. Toshkent, O‘zbekiston: Fan nashriyoti, 2009.
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, “Rasmiy statistik ma’lumotlar,” [Online]. Available: <http://www.stat.uz>
- [7] J. E. Stiglitz, Economics of the Public Sector, 3rd ed. New York, NY, USA: W.W. Norton, 2000.
- [8] P. A. Samuelson and W. D. Nordhaus, Economics, 19th ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill, 2010.
- [9] N. G. Mankiw, Principles of Economics, 8th ed. Boston, MA, USA: Cengage Learning, 2018.
- [10] D. C. North, “Institutions,” J. Econ. Perspect., vol. 5, no. 1, pp. 97–112, 1991.
- [11] World Bank, World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. Washington, DC, USA: World Bank, 2023.
- [12] OECD, Economic Outlook, Paris, France: OECD Publishing, 2022.
- [13] United Nations, Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, NY, USA: UN, 2015.
- [14] A. Sen, Development as Freedom. New York, NY, USA: Oxford University Press, 1999.
- [15] M. Porter, The Competitive Advantage of Nations. New York, NY, USA: Free Press, 1990.